

**O'ZBEKISTONDA HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA
FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI**

Alimbayeva Maftuna Umidbek qizi,

Xudayberdiyeva Sevinch O'tkir qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

“ Milliy g'oya , ma'naviyat asoslari va huquq

ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Maxmudova Zulfiya Alimjanovna

ADPI ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchısı

Annontatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda milliy davlat boshqaruv tizimining barpo etilishi , inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanishi, demokratik saylov tizimining yaratilishi , siyosiy partiyalar , jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi hamda bozor iqtisodiyotiga o'tishda o'ziga xos tutgan taraqqiyot yo'li haqida so'z boradi. Davlat dasturlari , iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi kabi masalalarning tub mohiyatini anglash eng dolzarb vazifalardan biri edi.

Kalit so'zlar: Huquq, fuqarolik jamiyati, Davlat dasturlari, ommaviy axborot vositalari, saylov tizimi, milliy davlat boshqaruv tizimi, iqtisodiyot , siyosiy partiyalar, bozor iqtisodiyoti.

Аннотация: В данной статье рассматривается становление национальной системы государственного управления, гарантия прав и свобод человека, создание демократической избирательной системы, развитие политических партий, общественных объединений и средств массовой информации, а также уникальный путь развития в условиях перехода к рыночной экономике. Определены государственные программы и важные задачи по развитию экономики. Одной из наиболее актуальных задач было понимание фундаментальности таких вопросов, как создание основ правового демократического государства и гражданского общества в Узбекистане.

Ключевые слова: Право, гражданское общество, Государственные программы, средства массовой информации, избирательная система, национальная система государственного управления, экономика, политические партии, рыночная экономика.

Annotation: In this article, the establishment of the national state management system, the guarantee of human rights and freedoms, the creation of a democratic electoral system, the development of political parties, public associations and the mass media, as well as the unique path of development in the transition to a market economy,

are discussed in Uzbekistan. is talked about. State programs and important tasks for the development of the economy have been defined. One of the most urgent tasks was to understand the fundamental nature of issues such as the establishment of the foundations of a legal democratic state and civil society in Uzbekistan.

Key words: Law, civil society, State programs, mass media, election system, national state management system, economy, political parties, market economy.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng o'zbek xalqi o'z taqdirini o'zi hal qilish, kelajagini o'zi belgilash imkoniyatiga ega bo'ldi. O'sha davrda O'zbekiston o'zining mustaqil siyosiy va ijtimoiy -iqtisodiy taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. Istiqlol yillarida jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirildi. Demokratik tamoyillar asosida amalga oshirilgan islohotlar natijasida davlat hokimiyatining turli tuzilmalarida o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar iqtisodiyot sohasini ham qamrab oldi. Respublikaning boy imkoniyatlari, geosiyosiy sharoitlaridan kelib chiqib O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalardan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish masalasi dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi sifatida belgilandi. O'tish davrining dastlabki yillaridan boshlab O'zbekistonda siyosiy mustaqillikni mustahkamlash, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga qaratilgan chuqur siyosiy islohotlar o'tkazish yo'lidan borilmoqda. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning kafolati – O'zbekiston Konstitutsiyasidir. Xususan, davlat hokimiyati tizimini barpo etishning huquqiy asoslari Konstitutsiyada qayd etilgan bo'lib, unda hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlaridan iborat deb ko'rsatilgan. Uch hokimiyat tizimi har biri alohida mustaqil bo'lib, ayni vaqtda bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Islom Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishiga quyidagicha ta'rif berib o'tgan: "Qonu chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, jamiyatning siyosiy tizimini tubdan yaxshilash, Respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatining vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish lozim bo'ladi." O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Majlis, ijro etuvchi hokimiyat – Vazirlar Mahkamasi, Sud hokimiyati- Konstitutsiyaviy Sud, O'zbekiston Respublikasining Oliy Sudi va Oliy xo'jalik Sudi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar sudlari va xo'jalik sudlaridan iborat. O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'lga kirgach, milliy davlat an'alariga, qadriyatlariga mos keluvchi va xalq xohish-irodasini to'la aks ettiruvchi fuqarolarning o'zini o'zini boshqarish organlari tizimini barpo etishni asosiy maqsad qilib qo'ydi. Bunda xorijiy mamlakatlarning e'tiborli tajribalari chuqur o'rganildi va yurtimiz sharoiti e'tiborga

olindi. Natijada O'zbekistonga xos va mos fuqarolarning o'zini o'zini boshqarish organlari vujudga keldi. Xususan, hozirda deyarli jahonning barcha mamlakatlarida (Fransiya, Germaniya, Rossiya, Turkmaniston va boshqa) bu institut mahalliy o'zini o'zi boshqarish deb atalsa, O'zbekistonda esa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi deb ataladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingach fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimining huquqiy zamini mustahkamlandi. 1993-yil 2-sentabrda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq uchinchi sessiyada qabul qilingan. Ushbu qonun bu organlar faoliyatiga bag'ishlangan ilk normativ-huquqiy hujjat bo'lib, unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vazifasi, vakolatlari, fuqarolar yig'ini va rais (oqsoqol)ning vakolatlari, ularning davlat hokimiyati organlari bilan munosabat asoslari belgilab berildi. Bu qonun yurtimiz mahallalari taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va milliy taraqqiyot talablaridan kelib chiqib, ushbu qonun hujjatlari muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi. Demokratik saylov tizimining yaratilishi. Demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri bu inson, uning huquqi va erkinlari masalasi bo'lib, u davlat va jamiyatning qay darajada rivojlanganini ko'rsatuvchi mezondir. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng o'tgan qisqa davr ichida insonning huquq va erkinliklari to'g'risidagi milliy qonunchilik tizimini shakllantirishga erishdi. Bunda O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy normalarni tan olishi va ularga qo'shilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, O'zbekistonda inson huquq va erkinliklariga doir BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarni tan oldi va ularga sadoqat bilan amal qilmoqda. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan mustaqil fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish, inson manfaatlarini qondirish, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish asnosida barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga va adolat prinsplariga amal qilishga erishish kabi ezgu maqsadlarga asoslanadigan muhitni yaratish yo'lida dadil, og'ishmasdan bormoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi kunda davlatimizda barcha sohalarda keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Biz yoshlarga berilyotgan imkoniyatlar ham buning yaqqol dalilidir. Bu imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda mamlakatimiz rivojiga munosib hissa qo'shishimiz lozim. Zero jamiyatning ertangi kuni biz yoshlarning qo'lida. Shuning uchun mamlakatimiz taqdiriga befarq, loqayd qaramasligimiz lozim, chunki o'z orzu umidlar bilan qurilyotgan tinch-totuv davlatda o'zimiz yashaymiz!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. A.O'tamurodov, M.Qirg'izboyev, T.Xojiyev "Fuqarolik jamiyati"

2. R.Shamsutdinov, X.Mo'minov "O'zbekiston tarixi"
3. Shavkatovna, U. S. (2022). ZAMONAVIY TA'LIM MUXITIDA TALABALARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH TIZIMININI TAKOMILLASHTIRISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(2), 136-139.
4. Usmanova, S. (2022). TALABALARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA AKSIOLOGIK PEDAGOGIKADAN SAMARALI FOYDALANISH. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 121-123.
5. Usmanova, S. (2022). Talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda pedagogik aksiologiyani ahamiyati. Евразийский журнал академических исследований, 2(10), 51-55.
6. Shavkatovna, U. S. (2022). ZAMONAVIY TA'LIMDA ILMIY PEDAGOGIK MUHITNING TALABALAR DUNYOQARASHIGA TA'SIRI: MUAMMO VA YECHIMLAR.
7. Alimjanovna, M. Z. (2022, October). PUBLIC ADMINISTRATION SYSTEM AND SOCIAL LIFE IN THE KINGDOM OF BABURIDS. In Archive of Conferences (pp. 173-187).
8. Alimjanovna, Z. M. (2022). NOSTALGIA IN THE PERSON OF BABUR. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 67-73.
9. Maxmudova, Z. (2022). MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG 'RIKENGLIK O 'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR. Journal of Integrated Education and Research, 1(1), 150-154.
10. Farhodovna, X. R. O., Sobirjon o'gli, U. B., & Tohirjon o'g'li, M. Z. (2024). BALIQCHI TARIXI VA ZIYORATGOHLARI. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(15), 80-84.
11. TRAINING OF EXPERT PERSONNEL IN THE FIELD OF IRRIGATION IN UZBEKISTAN (1951-1990)